XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2022 - yil 5 - sentabr VI-51-117-8-121-K/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahridagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qaroriga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 02-iyundagi 03-01/47-YB-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/157-sonli yig‘ilish bayoni hamda Respublika Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi 2022-yil 19-iyuldagi 08-06122-sonli xati orqali yo‘llangan ekspert xulosasi va ekspert komissiyasi bayoni joriy yilning 24-avgust kuni Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida muhokoma qilinganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Termiz shahar hokimligining 2022-yil 02-iyundagi 03-01/47-YB-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/157-sonli yig‘ilish bayoni hamda Respublika Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari

talablariga muvofiqligi haqida” 2022-yil 19-iyuldagi 08-06122-sonli xati orqali yo‘llangan ekspert xulosasi va ekspert komissiyasi bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahardagi ayrim Geografik obyektlarni nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Arxitektura va qurilish boshqarmasi (J.Mingliboyev), Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi Termiz shahar filiali (I.Ziyaqulov) birgalikda o‘zgartirish kiritilayotgan ko‘chalar nomlarining kartografiya va ma’lumotnoma nashrlarini tayyorlasin hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasiga taqdim etsin.

4. Shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Meyliyev) va shahar Ichki ishlar boshqarmasi (E.Nurullayev) tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda ayrim geografik obyekt (ko‘cha)larning nomlari tasdiqlanganligi, nomlanganligi sababli fuqarolarning fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni belgilasin.

5. Shahar Statistika bo‘limi (Yu.Turdiyev) Termiz shahar hududida nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyekt (ko‘cha)larni inobatga olgan holdaб statistik ma’lumotlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

6. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Xodjamkulov), Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi Termiz shahar filiali (I.Ziyaqulov) birgalikda nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyekt (ko‘cha)lar nomlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich, belgilar, peshlavhalarning bosqichma-bosqich o‘rnatilishini hamda mazkur ko‘chalarda joylashgan xonadonlar va obyektlarning raqamlanishini ta’minlasin, shuningdek obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etsin.

Belgilansinki, harajatlar mahalliy budjet, homiylik hamda qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

7. Belgilab qo‘yilsinki, tasdiqlangan geografik obyekt (ko‘cha)lar nomlari shahar hududida to‘g‘ri va to‘liq yuritilishi shart.

8. Shahar hokimligi axborot xizmati (O.Xudoyqulov), “Termiz oqshomi” gazetasi tahririyati (A.Saidmalikov)ga:

Nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyekt (ko‘cha)lar

to‘g‘risida ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga yoritish tavsiya etilsin.

9. Shahar hokimining maslahatchisi B.Usmonovga:

Xalq deputatlari shahar Kengashi qarori asosida ayrim geografik obyekt (ko‘cha)lar nomlari Respublika Kadastr agentligining davlat reyestriga kiritish maqsadida viloyat komissiyasiga taqdim etish;

Ekspertiza komissiyasi nomuvofiq deb topgan 2 ta obyekt (ko‘cha)ning Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha shahar komissiyasi tomonidan qayta ko‘rib chiqib, davlat ekspertizasidan o‘tkazish uchun tegishli hujjatlarni viloyat komissiyasiga taqdim etish topshirilsin.

10. Ushbu sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Xidirova) zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **I.B.Xudayberdiyev**

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 5 sentabrdagi
VI-51-117-8-121-K/22-son qaroriga
1-ilova

Respublika Kadastr agentligi tomonidan ekspert xulosasi berilgan
Termiz shahridagi mavjud geografik obyektlarning ro‘yxati

T/r	Geogtafik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Ko‘chalar					
1	**Ko‘cha**	“Manguzar” MFY	Nomsiz	**Intizor**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Elobod**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Do‘stlik**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Nurlimakon**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Hurvatan**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Yuksalish**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	**Ko‘cha**	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	**Osoyishta**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	**Ko‘cha**	“Namuna” MFY	Nomsiz	**Billur**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	**Ko‘cha**	“Alisher Navoiy” MFY	Nomsiz	**Farovon**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	**Ko‘cha**	“Kattabog‘” MFY	Nomsiz	**Baxtli hayot**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	**Ko‘cha**	“Kattabog‘” MFY	Nomsiz	**Sadaf**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	**Ko‘cha**	“Kattabog‘” MFY	Nomsiz	**Orasta**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	**Ko‘cha**	“Kattabog‘” MFY	Nomsiz	**Mardlar**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	**Ko‘cha**	“Kattabog‘” MFY	Nomsiz	**Nihol**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	**Ko‘cha**	“Kattabog‘”, “Bog‘ishamol”, “Chegara”, “Manguzar” mahallalari	Nomsiz	**Yangi O‘zbekiston**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq